

BADIIY ASARDA PSIXOLOGIK PORTRET YARATISH PRINSIPLARI

Umarova Xurshida Zikiryoxonovna

FarDU o'qituvchisi

Akbarova Hilolaxon Dilshodjon qizi

FarDU talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiyotshunoslikning muhim masalalaridan biri bo'lgan badiiy psixologizmni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri psixologik portret yaratish va uning prinsiplari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, o'zbek adibi Abdulla Qahhor ijodidan olingan misollar bilan yanada aniqlik yoritiladi.*

Tayanch so'zlar: *badiiy psixologizm, badiiy obraz, psixologik tahlil, tashqi qiyofa, psixologik tafsilot, dinamik, analitik, sintetik.*

Badiiy adabiyotda badiiy obraz yaratishning bir qancha usullari mavjud bo'lib, ulardan eng nozik va kitobxon qalbiga chuqur kirib bora oladigani bu- *badiiy psixologizm*dir. Badiiy psixologizm juda keng tushuncha bo'lib, adabiyotshunoslikda inson obrazi tasviri yaratila boshlangandan buyon mavjud deb qaraladi va bugungi kunda ham ushbu masala ustida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Badiiy psixologizm atamasi bir vaqtning o'zida psixologiya, psixologik tahlil, psixologik tasvir, psixologik obraz, psixologik roman, psixologik hikoya va shu kabi atamalar bilan uzviy bog'liqdir. A. B. Yesin ta'biri bilan aytganda, "badiiy psixologizm – bu asar personajining hayot olami, fikrlari, mulohazalarining o'ziga xos badiiy vositalardan foydalangan xolda juda to'liq, batafsil va chuqur ifodalab berish"¹. Taniqli o'zbek adabiyotshunosi E.Xudoyqulov esa psixologizmni ta'sirchanlikning yana bir turi deya e'tirof etadi. "Bu hol qahramonning ruhiy ahvolini ko'rsatishdir. U obrazning o'yi, kechinmasi, hayoli orqali ham yuzaga chiqadi"². Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, qahramonlarning nafaqat tashqi qiyofasini, balki ichki dunyosini ham tavsiflash yozuvchidan juda katta badiiy mahorat talab etadi. Shuning uchun ham qahramonlarning nafaqat tashqi qiyofasini, balki ichki dunyosini ham jonli tasvirlash yozuvchidan juda katta ilmiy-badiiy mahorat talab etadi va har bir bir yozuvchi badiiy xarakter psixologiyasini yoritishda o'zining shaxsiy yondashuvi, psixologiyasidan kelib chiqib turli badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi.

Chunki asarda qahramonlarning tashqi ko'rinishini kitobxon tasavvurida jonlantirishgina emas, balki psixologik portretini chizish yozuvchidan qahramonlarning ichki dunyosiga kirib borish, uning ruhiyati, qalbidagi kechinmalar tasviriga jiddiy yondashuv va uni real yuzaga chiqarish ham badiiy san'atdir. Ya'ni,

¹ <http://www.litmind.ru/milits-616-1.html> 8. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси.

² E. Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Iqtisod-Moliya. 138b

“yozuvchi asosiy e`tiborni personaj yoki lirik qahramonning ichki dunyosi, uning his-tuyg`ulari, fikrlari, kechinmalari, xohish-istaklariga qaratadi”.³

Badiiy psixologizmni yuzaga chiqaruvchi bir qancha vositalar mavjud bo`lib, ular ichida eng ahamiyatlilaridan biri-*psixologik portret* yaratishdir. Portret – bu badiiy asarda qahramonning tashqi qiyofasini yuz xususiyatlari, qomati, yurishi, gapirish uslubi kabi belgilar bilan tasvirlashdir. Portret – (fransuzcha portrait – portret, tasvir) – badiiy olamda shaxsni tasvirlashning asosiy usullaridan biri bo`lib, u insonning individual, o`ziga xos xususiyatlarni ta`kidlab, o`quvchi ko`z o`ngida qahramon qiyofasini yaratishning muhim vositasi hisoblanadi. Boshqa so`z bilan aytganda, psixologik portret-badiiy asarda badiiy xarakterning tashqi qiyofasi, xatti-harakatlarinigina emas, uning hayot olami, hissiyotlari va psixologiyasini kitobxon ko`z oldida gavdalandira olishdir. Chinakam badiiy asarda badiiy obraz yaratishda yozuvchi har bir personajning tashqi qiyofasi tasvirini ham uning psixologik portreti tasviriga bog`laydi.

Taniqli o`zbek adabiyotshunosi H. Umurov psixologik portret yaratishning **dinamik, analitik va sintetik** prinsiplari bor ekanligini aytadi va ularni *psixologizm prinsiplari* deb ataydi. Ulardan birinchisi-dinamik prinsipga quyidagicha ta`rif beradi: “romanda yozuvchi uchun ichki dunyoning-ruhning kechinmalarini tashqi qiyofa, holat va xatti-harakatlarda ko`rinishini tasvirlash ya`ni **dinamik prinsip** asosiy mezondir”.⁴ Misol tariqasida Abdulla Qahhorning “Sarob romanidagi Munisxonning Saidiyni birinchi marta uchratgandagi ruhiy holati va ichki kechinmalarini quyidagicha tasvirlaydi: “...yonida sog`lom , har bir harakatidan kuch-quvvat aks etib turgan bejirim yigit borardi. Qiz o`ng`aysizlanar, xuddi birov ko`rib qolishidan hadiksiraganday atrofga qarar, ammo bu yigitga zarur ishi bor yoki muhim bir joyga boshlab ketayotganday, bir qadam ham orqada qolmas edi. Qiz bir gap bahonasi Saidiyning yuziga tikildi-da, negadir qizardi”.⁵ Tasvirda qizning xattir-harakatlaridan ma`lumki, birinchi uchratishdayoq uning qalbida Saidiyni nisbatan qandaydir qiziqish va hissiyotlar uyg`ongan va u bundan keyin ham unga befarq bo`lolmaydi. Ikkinchisi esa **analitik prinsip** bo`lib, unda ko`proq qahramonning o`y-hayollari, ichki kechinmalari va intimlari tasviri orqali biz uning aslida qanday inson ekanini yaqindan bila boramiz. Abdulla Qahhorning “Sarob” romanidagi ushbu parchaga e`tirborimizni qaratsak: “Saidiy qo`lini orqasiga qilib eshik oldida naridan beri yurib turdi. Qizning lab tishlab bosh chayqashi uning ko`z oldidan, mayin tovushi qulog`idan ketmas edi. Uning boshidagi fikrlar aralash-quralash bo`lib ketti; bularning ichidan birontasini

³ А. Н.Николюкин. Литературная энциклопедия терминов и понятий. Интелвак. Москва. 2001 517 b

⁴ H.Umurov.Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. 2004. 50-52 bb

⁵ A. Qahhor. “Sarob”.T; “Sharq” nashriyoti. Toshkent-1995 7-b

ajratib olsa, o`sha ham hayolga aylanib ketar edi: “Shu qizning boshiga bir kulfat tushsayu qutqaradigan faqat men bo`lsam”, der edi”.⁶ Saidiyning ushbu intim kechinmalarini, o`ylarini keltirish orqali yozuvchi uning shaxsiyatida naqadar xudbinlik, muhabbatida esa sof va samimiy bo`lmagan tubanlik bor ekanligini ko`rsatadi.

Lekin ushbu ikki prinsipni bir biridan tubdan farq qiladi deb tushunmaslik kerak. Aslida esa ular bir-birini to`ldiradi va bir-biriga chambarchas bog`liqdir. Uchinchi prinsip-**sintetik prinsip** bo`lib, ushbu usulda qahramonning ruhiy olami uning xatti-harakatlari, qiyofasi, xuddi shu qahramonlarning fikri va hissiyotlari dialektikasi bilan birlikda ifoda etiladi. Misol tariqasida Abdulla Qahhorning “O`g`r” hikoyasiga yuzlanadigan bo`lsak, ho`kizi yo`qolganini bilgan Qobil boboning tashqi holatini yozuvchi “Qobil bobo yalangbosh,yalang oyoq, yaktakchan og`il eshigi yonida turib dag`-dag` titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko`zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hechkimni ko`rmaydi”⁷- deya tasvirlaydi. Ushbu dinamik tasvirdan biz personajning faqatgina tashqi pozitsiyasiva undagi fiziologik o`zgarishlarni emas balki, ichki holati, psixikasidagi o`zgarishlarni ham ko`z oldimizga keltirishimiz va hatto his qilishimiz mumkin. Qobil bobo oilasi uchun bir donagini ho`kiz ham katta ahamiyatga ega va ho`kizning o`g`irlanishi ular uchun katta yo`qotish. Ushbu misoldan ham bilishimiz mumkinki, yozuvchi badiiy asarlarda qahramonning tashqi qiyofasi, xatti-harakati, pozitsiyasi, kiyinish uslubi, so`zlashuv madaniyati, asardagi boshqa qahramonlar bilan munosabati, jamiyatdagi ijtimoiy o`rni va faoliyatini tasvirlash orqali ham o`quvchi ko`z o`ngida psixologik portretlarni chizishi mumkin. O`quvchi qahramonning jismoniy qiyofasi bilan birgalikda, uning ichki kechinmalari, ruhiy dunyosi bilan ham yaqindan tanishishi mumkin. Lekin, bir badiiy asar boshdan oyoq bitta prinsipga asoslanmaydi. Muallif o`z ijodkorligi va dunyoqarashidan kelib chiqib personajlar tasviriga turli yo`l yondashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, yuqorida keltirilgan badiiy psixologizm prinsiplari qaysidir ma`noda bir-biridan farq qilsada, ularni bir biridan to`laqonli ajratib bo`lmaydi. Ya`ni, bir badiiy asarda ushbu prinsiplarning har bir birini uchratishimiz mumkin. Aynan bitta uslubdan foydalanib psixologik portretni mukammal chizishning ilojisi yo`q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://www.litmind.ru/milits-616-1.html>
8. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси.

⁶ A. Qahhor. “Sarob”.T; “Sharq” nashriyoti. Toshkent-1995 6-b

⁷ A. Qahhor. “Asarlar”. I jild. G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti.Toshkent-1987 291-b

2. E. Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Iqtisod-Moliya. 138b
3. A. Н.Николюкин. Литературная энциклопедия терминов и понятией. Интелвак. Москва. 2001 517 b
4. Н.Umurov.Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. 2004. 50-52 bb
5. A. Qahhor. “Sarob”.T; “Sharq” nashriyoti. Toshkent-1995 7-b
6. A. Qahhor. “Sarob”.T; “Sharq” nashriyoti. Toshkent-1995 6-b
7. A. Qahhor. “Asarlar”. I jild. G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti.Toshkent-1987 291-b

